

ULUG'BEK HAMDAM ASARLARIDA YORDAMCHI FE'LLI QURILMALARNING QO'LLANISHI

Rahmatova Sevaraxon Alisherovna

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 18-maktabning O'zbek tili fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7118184>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kitobxonlarning sevimli adibi, filologiya fanlari doktori Ulug'bek Hamdam asarlarida qo'llanilgan fe'llarni va ular orasida yordamchi fe'lli qurilmalarning qo'llanish uslublarini ko'rib chiqiladi va bu orqali yordamchi fe'lli qurilmalar matnning ohangdorligiga, jaranglilikiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: adib, asar, roman, fe'l, yordamchi fe'l, ma'no, mazmun, yordamchi fe'lli qurilma, mumtoz, modernizm, yetakchi fe'l, ko'makchi fe'l, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ ГЛАГОЛЬНЫХ УСТРОЙСТВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ УЛУГБЕКА ХАМДАМА

Аннотация: В данной статье рассматриваются глаголы, употребляемые в произведениях любимца читателей, доктора филологических наук Улугбека Хамдама, и способы употребления среди них вспомогательных глагольных средств, посредством которых вспомогательные глагольные средства влияют на тон и звучность текста. обращено внимание.

Ключевые слова: автор, произведение, роман, глагол, вспомогательный глагол, значение, содержание, устройство вспомогательного глагола, классика, модернизм, ведущий глагол, вспомогательный глагол, глагольная фраза макчи.

THE USE OF AUXILIARY VERB DEVICES IN ULUGBEK HAMDAM'S WORKS

Abstract: This article examines the verbs used in the works of Ulug'bek Hamdam, the favorite writer of the readers, doctor of philology, and the ways of using auxiliary verb devices among them, and through this, auxiliary verb devices affect the tone and sonority of the text. attention is drawn.

Key words: author, work, novel, verb, auxiliary verb, meaning, content, auxiliary verb device, classical, modernism, leading verb, auxiliary verb, makchi verb phrase

KIRISH

Yordamchi fe'lli qurilma– tarkibida bir-birini izohlaydigan fe'llar mavjud bo'lgan qo'shilma: ko'rib qoldi, o'qib yuribdi, yozdi-oldi, gapira ketdi, yasay boshladi. Yordamchi fe'lli qurilma ikki qismdan tashkil topadi: yetakchi fe'l va ko'makchi fe'l. Yetakchi va ko'makchi fe'lning qo'shilishidan qo'shma fe'l, ya'ni yangi so'z hosil bo'lmaydi, chunki ular birgalikda yangi bir lug'aviy ma'noni ifodalaymaydi, balki davomiylik, to'satdan boshlanganlik, harakatning tugallanganligi kabi ma'nolarni bildiradi: o'qib chiqdi (tugallanganlik), ko'rib qoldi (to'satdan yuz berish).

Deyarli barcha kitobxon o'quvchilar uchun tanish bo'lgan adib Ulug'bek Hamdamning asarlari kitobxonlar uchun o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Ulug'bek Hamdamning asarlarini o'qigan o'quvchi asar qanchalar oson, tez, ravon o'qilishini his qiladi. Asarlarining har bir jumlasini kitobxonni o'ziga jalb qiladi. Albatta, "Bunday asar yozishda nimalarga e'tibor berish kerak?" degan savol har bir o'quvchini o'ylantirishi ehtimoldan holi emas. Ulug'bek Hamdamning bunday mahoratini so'z qo'llash bilan bog'liq deyish mumkin. Adib asar yozishda har bitta so'zni qo'llashga alohida ahamiyat qaratgani yaqqol sezilib turadi. Yozuvchi imkon qadar asarlarida sof o'zbekcha, turkona so'zlardan foydalanadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Bilamizki, jumlaning qanchalar ohangdor bo'lishini ta'minlashda fe'llarning ahamiyati ham katta. Turli-tuman, bir so'zning turli xil variantlari bo'lgan fe'llarni tanlashga ham katta e'tibor qaratadi. Oddiygina bir so'zdan iborat bo'lgan fe'llning o'zini qo'llashdan ko'ra shu fe'lni yordamchilar bilan birgalikda kengaytirgan holda yordamchi fe'lli qurilmadan foydalanish gapning mazmundorligini oshiradi, gap jarangdor bo'ladi. Bu narsa oddiy bir kichik detal bo'lib ko'rinishi tabiiy. Ulug'bek Hamdamdek mahoratli adib shu oddiygina kichik detallarni ham e'tibordan qochirmagan. Adib shu narsalarga ham katta ahamiyat qaratgani uning asarlarini ko'rib chiqqanimizda yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Oddiygina bir fe'l vositasida qanday qilib asarning ta'sir doirasini oshirish mumkin? Bunday savolning yuzaga kelishi tabiiy holat. Bir fe'lni yordamchi vosita orqali kengaytirganda bu fe'l yana boshqa qo'shimcha ma'nolar ifodalashi mumkin yoki bu fe'llning ta'sir doirasi kuchayib, ma'no yanada yorqinlashishi mumkin.

Ulug'bek Hamdam asarlaridagi parchalarni keltirish orqali yordamchi fe'lli qurilmalarning qo'llanishini ko'rib chiqamiz.

“Shu ko'ylarida taqdirdan shafqat ilinjida borisharkan, kutilmaganda qarshilarida-shundoq peshonalarida yaxshi kiyingan, bo'y-bastlari baland yov chiqib qolsa bo'ladimi!.. Dod-ey, taqdirning bunday sinovi ham bor ekanmi! Bir – birlariga och bo'rilardek tashlanishdan o'zga iloj topolmadilar: qo'l jangi boshlanib ketdi. Po'lat ham kelbatda ulardan qolishmas edi”.

Bildikki, yuqoridagi parcha Ulug'bek Hamdamning “Ota” romaniga tegishli. Romandagi ushbu parchaning har bir gapi yordamchi fe'lli qurilmadan tashkil topganligi ko'rinib turibdi. “Chiqib qolsa bo'ladimi, boshlanib ketdi” ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari, “borisharkan (borishar ekan), bor ekanmi, qolishmash edi” kabi edi, ekan, emish to'liqsiz fe'llari bilan ifodalangan yordamchi fe'lli qurilmalar ushbu misralarning ohangdorligini, jarangliligini ta'minlamoqda. Parchaning birinchi va ikkinchi gapida his-hayajon mavjud. Bu his-hayajonni yuzaga keltirishda ham yordamchi fe'lli qurilmaning ahamiyati katta. “Yov chiqdi” deyishdan ko'ra “yov chiqib qoldi” deyish gapning ma'no-mazmunini oshiradi. Bu satrlarni o'qiyotgan o'quvchi, albatta, vaziyat kutilmaganda, qo'qqisdan sodir bo'lganini aynan shu yordamchi fe'lli qurilma vositasida anglab yetadi. Matnning mazmundor, jarangli, ohanrabodek o'ziga tortuvchan bo'lishi uchun asosiy vositalardan biri bu so'z tanlash, so'zlar orasida esa qo'llanilayotgan fe'llning ham juda katta ahamiyatga ega ekanligini yuqoridagi misol orqali ko'rishimiz mumkin bo'ldi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Ulug'bek Hamdam barcha asarlarini juda ham katta mahorat bilan yozgan. Shuning uchun ham adibning asarlari barcha deyarli barcha kitobxonlar qalbidan joy egallagan. Yuqorida ko'rgan “Ota” romanidagi yordamchi fe'lli qurilmaning qo'llanishi bo'yicha misolimiz bilangina cheklanib qolmay adibning boshqa asarlarini ham ko'rib chiqish, albatta, foydadan holi emas.

“ – Qachon ekan to'yimiz, men yaxshi eshitmay qoldim? – Asakada poyezddan tushib, taksida uylariga kelishar ekan, Nilufar Nodirdan ginalanib so'radi. Nodir javob o'rniga yoyilib jilmaydi.

-Nega kulasiz? Javob bering. O'z to'yim haqida bilishga haqqim border, axir, qayerda o'qiyotganimizni unutmang! Haq – huquqlarimni poymol etilishiga qarab turmasman.

Nodir yana kuldi. Nilufarning ham yuzlarida tabassum paydo bo'ldi. So'ng esa badqovoq haydovchini ham esdan chiqarib, bir – birlariga qaragancha baralla qahracha urishdi...”

Ulug'bek Hamdamning “Sabo va Samandar” romanidan olingan yuqoridagi parchada ham talaygina yordamchi fe'lli qurilma mavjud. “Eshitmay qoldim, kelishar ekan, qarab turmasman, esdan chiqarib, qahqaha urishdi” yordamchi fe'lli qurilmalar yuqoridagi parchada yaqqol

namoyon bo'lib turibdi. Yozuvchining har bir romanida shu kabi yordamchi fe'lli qurilmalar talaygina. Aslida bunday qurilmalarsiz chiroyli jumlar tuzib ham bo'lmaydi. Hatto oddiygina so'zlashuv tilimizda ham juda ko'plab yordamchi fe'lli qurilmalardan foydalanamiz. Bu kabi qurilmalardan foydalanishning yana bir sababi shundaki, faqat birgina asosiy fe'llning o'zi fikrni to'liq ifoda qilib bera olmasligi yoki gapni tushunarsiz, sodda qilib qo'yishi mumkin. Yordamchi fe'lli qurilmalar esa gapni to'liq, tushunarli, aynan nima nazarda tutilayotganini aniq ifoda qilib bera olish bilan birga ma'lum vaziyatga munosabatimizni va hatto ayrim o'rinlarda hissiyotlarimizni ham ifodalash qudratiga ega. Shu sababli yordamchi fe'lli qurilmalarga ehtiyoj katta. Ulug'bek Hamdam ham o'z asarlarida bunday qurilmalardan mohirona foydalangan. Shuning uchun ham Ulug'bek Hamdam asarlarining tili sodda, o'qilishi ravon.

“Bazmlar-u o'tirishlardan, sarxil ovqat-u turli – tuman kiyinishlardan, o'ziga oro berib, tanish – bilishlar ziyorat uchun ko'chaga chiqishlardan va hokazolardan to'yib ketgan Zaxro esa ayni vaqtda hech qursa uy yumushlarini o'zi bajargisi kelardi. Eri uning shugina iltimosini ham oxirigacha ado etmagandi. Shundan keyin u Mirazimni yomon ko'rib ketdi. Axir, ko'cha – ko'yda xohlagancha maishatini qilib, uyda esa xotinini ishlatmay olib o'tiradigan odam odammi. Zaxroning shunday iztirobli o'ylar bilan erini, eri orqali esa o'z hayotini taftish qilib yashayotganiga ham ancha bo'ldi.”

Yuqoridagi Ulug'bek Hamdamning “Muvozanat” romanidan olingan parchada ham talaygina yordamchi fe'lli qurilmalar mavjud. “Oro berib, ko'chaga chiqish, to'yib ketgan, yomon ko'rib ketdi, olib o'tiradigan” kabi yordamchi fe'lli qurilmalar asarning faqatgina shu parchasida emas, boshqa parchalarida ham talaygina. Bu kabi yordamchi fe'lli qurilmalar asarda juda ham ko'plab uchraydi. Ular asarning ma'no – mazmunini boyitishga ham juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan yordamchi fe'lli qurilmalarsiz ifodalamoqchi bo'lgan fikrni to'liq tushuntirish ham qiyin. Fikrni to'liq ifodalash ba'zan aynan shu yordamchi fe'lli qurilmalarga bog'liq bo'ladi. Yuqorida keltirilgan parchalardan ko'rinib turibdiki, yordamchi fe'lli qurilmalar ikki asosdan, ba'zan esa uch asosdan ham tashkil topgan bo'ladi. Gap qanday ma'no – mazmun ifodalashi ko'pincha yordamchi fe'lli qurilmalarga bog'liq bo'ladi. Yordamchi fe'lli qurilmalar gapning ma'no – mazmuniga bog'liq bo'ladi. Bevosita gapning ma'nosini o'zgartirishga ham qodir. Yordamchi fe'lli qurilmalar gapga turli xil ma'no – mazmun yuklaydi. Gapning qanday ahamiyat kasb etishi ham yordamchi fe'lli qurilmaga bog'liq. Gapda ifodalanayotgan mazmunning qanday shaklda bo'lishi, gapning odatda his – hayajon bilan aytilishini ta'minlash ko'pincha yordamchi fe'lli qurilmaga ham bog'liq bo'lganligi sababli asarlar yozilishida ham bunday qurilmalardan imkon qadar ko'proq foydalanishga harakat qilinadi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, oddiy bir asosli fe'ldan ko'ra yordam fe'lli qurilma gapning ta'sir doirasini kengaytiradi.

Ulug'bek Hamdam singari mahoratli va tajribali yozuvchilar asar yozilishida oddiy kichik bir detalga ham katta ahamiyat qaratgani sababli bunday asarlar o'lmas va unutilmas, qayta – qayta o'qishga arziydigan asar bo'lib yaraladi. Bunday mayda detallarning biri yordamchi fe'lli qurilma ekanligi yuqorida ko'rib chiqildi. Demak, Ulug'bek Hamdam har bir asarini yozishda yordamchi fe'lli qurilmalarning qo'llanishiga alohida ahamiyat qaratgan. Yuqorida faqatgina adibning uchtagina, “Ota”, “Muvozanat”, “Sabo va Samandar” romanlaridagina misollarni ko'rib chiqdik. Adibning yana boshqa asarlarida ham yordamchi fe'lli qurilmalar qo'llanishi bo'yicha salmoqli o'rin egallaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, fe'llning oddiy bir tarkibiy qismlaridan biri bo'lib tuyilgan yordamchi fe'lli qurilmalarning asarda qo'llanishi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Bu kabi mayda – mayda detallarga e’tibor qaratgan yozuvchininggina asarlari o’lmas, unutilmas, tamomila yo’qotib bo’lmaydigan asarlar bo’lib yaraladi. Ulug’bek Hamdam ana shunday o’lmas asarlar yaratishga qodir yozuvchi ekanligi ushbu maqola davomida ham o’z isbotini topdi.

Adabiyotlar:

1. Ulug’bek Hamdam. Ota. T.: Yangi asr avlodi. 2020.
2. Ulug’bek Hamdam. Muvozanat. T.: Yangi asr avlodi. 2021.
3. Ulug’bek Hamdam. Sabo va Samandar. T.: Yangi asr avlodi. 2018.
4. Ulug’bek Hamdam. Bizdan rozi bo’ling, ota. T.: Yangi asr avlodi. 2022.
5. Hamidulla Boltaboyev. Ota duosi. Maqola.
6. Umarali Normatov. Otaga ta’zim. Maqola.
7. N. Erkaboyeva. O‘zbek tili amaliy grammatikasi. T.: 2013